

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA FAOL O‘QITISH USULLARINING
AHAMIYATI****Abdirayimova Fazilat Xakimovna****Abdiyeva Rohila Mengziyayevna**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida faol o‘qitish usullaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuv an‘anaviy darslarni jonlantirib, o‘quvchilarni bilimlarni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, tahlil qiluvchi va qo‘llovchi sub‘ektga aylantiradi. Faol o‘qitish usullari orqali o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, muloqot va bahs-munozara olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Shu bois boshlang‘ich ta‘limda interfaol va ijodiy metodlardan foydalanish nafaqat bilimlarni samarali o‘zlashtirish, balki shaxsiy sifatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, faol o‘qitish, interfaol metodlar, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta‘lim, o‘quvchi faolligi, ta‘lim samaradorligi, shaxsiy rivojlanish.

O‘qish metodikasining bugungi talablari bo‘yicha o‘quvchi xilma-xil janrda yozilgan badiiy asarlarni o‘qib o‘rganishi orqali ularning mohiyati va badiiy xususiyatlarini o‘zlashtirishi hamda tegishli xulosa chiqara oladigan, o‘z fikr mulohazalarini erkin va ravon bayon qila oladigan darajaga ko‘tarilishi zarur.

O‘quvchi har qanday asar kim tomonidan, qanday maqsadni ko‘zlab yozilganligini asta-sekin tushunib boradi. Yozuvchi o‘z g‘oyaviy maqsadini amalga oshirishda badiiy so‘zning qaysi imkoniyatlaridan foydalanishi yoki hayotiy hodisalar va insonlarni qanday badiiy tasvir vositalari yordamida jonlantirishga erishishiga doir savollarga javob topishi uchun o‘quvchilarda ma‘lum me‘yor va tizim asosida adabiy tushunchalarni shakllantirib borish talab qilinadi. Ayni shu talab amaldagi o‘quv dasturida ma‘lum mavzularni, adabiy asarlarni o‘rganishga bog‘lab berilganki, o‘quvchilar bunga adabiy tushunchalarni o‘zlashtirish orqaligina erisha boradilar .

O‘quv dasturlari ta‘lim mazmunini ma‘lum me‘yorga soluvchi hujjatdir. Ayni paytda, o‘qish predmetidan o‘quv dasturi mustaqil fikrli, go‘zallikni his qilib undan zavq ola biladigan, badiiy so‘z san‘atini tushunadigan, erkin tafakkurli shaxslarni



shakllantirishga xizmat qiluvchi va uni amalga oshirish imkonini beruvchi tadbirlar yig'indisidan tarkib topgan[11].

Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi mazkur ta'lim bosqichining har bir ta'lim sohasi uchun belgilangan standart parametrlari, mazkur ta'lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi, tarkibiy qismlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik, psixologik, texnologik tizimi bilan darajasini belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda butun e'tibor boshlang'ich ta'limning maqsadi yuzasidan uzviylik, tadrijiylik va to'laqonlilikni saqlab qolishga qaratiladi.

Sinfda va sinfdan tashqari o'qishning mazmuni kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy-etstetik tafakkurini shakllantirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, odam va olamga xos xususiyatlar bilan tanishtirish, o'zligini tanitish hamda ona vatanga muhabbat uyg'otish maqsadlariga xizmat qiladi. Zero, o'qish ta'limi o'quvchilarning nutq boyligini o'stirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim omilidir. Shuning uchun ham o'qish darslari boshlang'ich ta'lim tizimida muhim o'quv predmeti sifatida ta'lim berish, kamol toptirish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi[10].

Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi o'qishga o'rgatishning muhim vazifalariga o'quvchilarning to'g'ri va ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, o'quvchilarni asarlarning adabiy-estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularda tasvirlangan voqea-hodisalarning mohiyatini anglash va muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash, o'quvchilarda yuksak axloqiy qarashlar va nafosat tuyg'usini tarbiyalash, o'quvchilarni matn ustida ishlashga o'rgatish, o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish kiradi.

Bu vazifalar dasturda berilgan badiiy asarlar, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida amalga oshiriladi. Har bir sinf o'qish dasturi o'qish mavzulari va yod olish uchun asarlar tartibi, o'qish ko'nikmasi va malakalariga qo'yiladigan talablar, matn va bog'lanishli nutq ustida ishlash rejasi va sinfdan tashqari o'qishni tizimli tarzda tashkil etish masalalarini o'z ichiga oladi.

O'qish dasturini tuzishda g'oyaviy-estetik, mavsumiy, tadrijiy asoslar hisobga olingan. Undagi o'quv mazmuni o'quvchilarga ta'lim berish, ularni tarbiyalashda muhim bo'lgan borliq haqidagi bilimlar va insoniy munosabatlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarni badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirish o'qish dasturining tub mohiyatini tashkil etadi[9].

Jafokash xalqimizning o'tmishda bosib o'tgan shonli yo'li aks ettirilgan asarlarni o'qish orqali o'quvchilarda tarixiy bilimlar shakllana boradi. Ona yurt daxlsizligi yo'lida ajdodlarimiz olib borgan mardonavor kurashlar tarixi haqida hikoya qilingan



asarlarda o'quvchilarda vatanga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalaydi.

1-sinfning o'quv yili oxirida o'quvchilar vatan va uning tabiati, milliy qadriyatlar haqida kichik-kichik asarlarni o'qiydilar. 2-sinfda vatan, ona tabiat, istiqloq, kishilarning hayoti va mehnati, axloqiy munosabatlar haqidagi shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo'lmagan asarlar bilan tanishadilar.

3-4-sinflar o'qish dasturidagi mavzular ko'lami ancha keng. Bu sinflarda o'qish darslarining kattagina qismi asarni o'qish va matn ustida ishlashga qaratiladi. Suhbatlar, hikoya qilishlar, dastlabki o'qishlar badiiy matnlar mazmuni bilan uzviy bog'langan bo'lishi, mavzuga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilarni hishayajon bilan o'qishga tayyorlashi va asarni to'g'ri tushunishga yordam berishi zarur[8].

Darsda o'quvchilarning faolligini oshiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydalanish, asarlarni janr mazmunidan kelib chiqib, rollarga bo'lib o'qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'qish darslarini o'quvchilarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni, fahm-farosatni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish o'quvchilarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, ularning shaxs sifatidagi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Sinfda, sinfdan tashqari o'qish va nutq o'stirish” da matn tahlilida adabiy tushunchalar ustida ishlash bo'yicha quyidagicha ko'rsatmalar berilgan:

1-sinfda o'quvchilar matnni ongli, to'g'ri va bo'g'inlab sidirg'a o'qishni o'rganadilar. Olti-yetti yoshli o'quvchilarning nutqini takomillashtirish uchun uning nutqidagi kamchiliklarni o'qish darslaridagina emas, balki barcha fan yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berish zarur. O'quvchilar o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishga o'rganadilar. Matn ustida ishlash o'qituvchi rahbarligida olib boriladi[7].

2-sinfda o'quvchilarda so'zlarni to'liq, sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi. O'qishning to'g'ri va ifodali bo'lishiga erishiladi, o'qish texnikasi tezlashadi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichda (ovozsiz) mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishlash murakkablashib boradi, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini



ifodalovchi soʻz va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni soʻz bilan tasvirlashga oʻrganadilar. Ularda soʻz boyligiga talab ortadi.

Nutq ravonligi va mazmuniga eʼtibor kuchayadi, lugʻati boyiydi va faollashadi, nutq surʼati oshadi, soʻzlarni toʻgʻri qoʻllashga, ovozni boshqarishga oʻrganadi[6].

3-sinfda soʻzlarni butunicha sidirgʻa oʻqish koʻnikmasi toʻla shakllanadi. Bu esa oʻquvchilarning ongli va ifodali oʻqishga qoʻyilgan talablarni oʻstirish imkoniyatini beradi. Oʻqish darslarida oʻquvchilarning matn mazmunini oʻzlashtirish ustida mustaqil ishlashga, hikoyadagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilashga, oʻzaro bogʻlanish sabab-natijalarini aniqlashlariga alohida ahamiyat beriladi. Matnning badiiy xususiyatlarini, tasviriy vositalarini aniqlash ustida ishlash davom ettiriladi. Oʻquvchilarni oʻz nutqlarida maqollardan, hikmatli soʻz va iboralardan foydalanishga, soʻzlarni toʻgʻri tanlashga, gap qurilishidagi (soʻzlarning bir-biriga bogʻlanishidan) toʻgʻri foydalanishga oʻrgatish talab etiladi. Oʻqish darslarida oʻquvchilarning soʻzlarni adabiy qoidalarga muvofiq talaffuz etishlari talab etiladi.

Xulosa. Boshlangʻich taʼlim jarayonida faol oʻqitish usullaridan foydalanish oʻquvchilarning darsdagi ishtirokini oshiradi, bilimlarni puxta va ongli oʻzlashtirishga yordam beradi. Bu usullar orqali kichik yoshdagi oʻquvchilar oʻz fikrini erkin ifodalash, savol berish, hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etish koʻnikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, faol metodlar oʻquvchilarda qiziqish, ijodkorlik, masʼuliyat va muloqot madaniyatini shakllantiradi. Shu bois boshlangʻich taʼlimda faol oʻqitish nafaqat bilim olish samaradorligini oshiradi, balki oʻquvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishi uchun ham muhim shart boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Hasanboeva O., Xoliqova G. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
2. Nishonova Z. Pedagogika. – Toshkent: Ilm ziyo, 2018.
3. Toʻraqulov H., Xoliqov R. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2020.
4. Yoʻldoshev J. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Azizxoʻjayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2003.
6. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 153-156.



7. Saydulloyevich, O. Y. (2023). Samples of the Wisdom of Imam Abu Hamid Ghazali Quoted in the Great Works. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
8. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G‘AZZOLIY ASARLARIDA “YOLG ‘ON SO ‘ZLASH VA YOLG ‘ON QASAM ICHISH” YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
9. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G‘AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.
10. Ismoilova Durdona G‘Ulom Qizi (2024). TALABALARNI MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G‘AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O‘RNI. *Research Focus*, 3 (12), 109-114. doi: 10.5281/zenodo.14532269
11. Shavkatovna, X. M. (2025). Pedagogik nazorat va baholash. *ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI*, 2(6), 124-126.